



Kimyog'ar



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI:

"KONSTITUTSIYA — SUVEREN DAVLAT KAFOLATI"

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992 -yilning 8 -dekabr kuni qabul qilingan. Uning qabul qilinganligida avvalambor xalq manfaatini, inson qadri ustun qo'yilgan. Hattoki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimada "fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e'lon qilamiz" deb ta'kidlab o'tilgan.

"Farg'onaazot" AJda konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 32 yilligi munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi. Tadbirni jamiyat boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov o'zining tabrigi bilan ochib berdi. So'ng Sharqiy-Harbiy okrug harbiy orkestr ijrosida davlatimiz madhiyasi yangradi.

Tadbirda tashrif buyurgan Farg'ona viloyati prokuraturasi bo'limi boshlig'i o'rinbosari Muhsinjon G'oyibov bizning konstitutsiyamiz, bizning - himoyamiz, farovon hayotimiz belgisi ekanligi hamda 2023-yilning 1- may sanasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi, uning yangi tahriri tasdiqlanganligi to'g'risida to'liq ma'lumotlar berib o'tildi. Yangi O'zbekistonimizning Yangi konstitutsiyasiga 10 ta asosiy o'zgarish kiritilib, Konstitutsiya 6 bo'lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat ekanligini aytib o'tdi.



Shuningdek, tadbirda 9- dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni, 10-dekabr O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi qabul qilingan kun to'g'risida ma'ruzalar qilinib, ma'lumotlar berib o'tildi.

Tadbirda, faxriy soqchilar ijrosida jangavor chiqishlar ko'rsatildi. Konstitutsiyamiz tarixi va shakllanish bosqichlari haqidagi videorolik esa




hammaga birdek manzur bo'ldi. Bayram dasturiga jamiyatning sexlari o'rtasida "Biz bir bo'lsak-yagona kuchmiz, birlashsak-vatanimiz" g'oyasi ostida o'tkazilgan "Ma'naviyat bo'yicha yetakchi sex" ko'rik-tanlovining taqdirlash marosimi yakun yasadi.

E'zozxon ABDULLAYEVA.

YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILIDA JAMIYATIMIZDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

"Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni ma'naviy, intellektual, jismoniy sog'lom, yetuk bo'lishlari yuqori darajada bo'lib kelgan. Zero, ularni salohiyatli, vatanparvar, halol va kuchli bo'lishlari mustahkam, tebranmas kelajak barpo etishimizga zamin yaratadi. Bejizga, davlatimiz rahbari - "Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega" demaganlar.



Jamiyatimizda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish doirasida joriy yilda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Xususan, yoshlarning intellektual qobiliyatini yanada yuksaltirish maqsadida "Eng faol yosh kitobxon", "Zakovat" kabi intellektual o'yinlar hamda "Yoshlar haftaligi" doirasida ko'plab tadbirlar o'tkazildi. Salomatlikni mustahkamlash maqsadida mini futbol, voleybol, stol tennis, yurish, yugurish marafonlari, kamondan otish, tosh ko'tarish, arqon tortish, "ARMwrestling" shaxmat, shashka va boshqa turli xil sport turlari bo'yicha spartakiada o'yinlari o'tkazildi. Yoshlarning

kasbiy mahoratini oshirish maqsadida 4 ta yo'nalish bo'yicha "Kasb mahorati" ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Shuningdek, 11 oy davomida o'z muammolari bilan murojaat qilib kelgan 170 nafar yoshlarga, 83 mln. so'm miqdorda bir martalik moddiy yordamlar berildi. Korxonada Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan jamoa shartnomasiga asosan, ilk bora nikohdan o'tayotgan 80 nafar yoshlarga 80 mln. so'mdan ziyod miqdorda mukofot pullari taqdim etildi. Yoshlarning madaniy xordiq chiqarishlarini ta'minlash maqsadida turli xil gala-konsertlar, ma'naviyatini yuksaltirish, yurtimiz tarixini

yanada chuqurroq o'rgatish maqsadida ma'naviy-ma'rifiy soatlar hamda tarixiy maskanlarga bir qator sayohatlar uyushtirildi. Yosh mutaxassislarimizga Yoshlar ittifoqi kengashi tomonidan doimiy ravishda psixologik, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashlar, ularning yorqin kelajak yaratishlari uchun yordamlar, turtkilar berib kelinmoqda. O'ylaymanki, yoshlarimiz hayotning murakkab so'g'moqlarida o'z o'rinlarini aniq egallab, jo'shqin, shijoat bilan Yangi O'zbekistonimizga munosib yosh qanotlar bo'laldir.

Nurmurod SIROJOV.

11-NOYABR "O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI KUNI" JAMIYATIMIZDA KENG NISHONLANDI



"Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyati Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan 11-noyabr "O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni"ni munosib kutib olish va o'tkazish borasida chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Ushbu dastur asosida korxonada bir qancha tadbirlar, musobaqalar tashkil etildi. Quvonarlisi, mazkur tadbirlarga barcha tarkibiy bo'linmalar ishchi-xodimlari jalb qilindi.

Mamlakatimiz bo'ylab, 2024-yil noyabr oyining birinchi yarmida "Inson qadri uchun, el-yurt baxti uchun!" g'oyasi asosida "Yangi O'zbekistonning yangi kasaba uyushmalari o'n kunligi" deb e'lon qilindi. Bayramga bag'ishlab bannerlar tayyorlanib, hududlarga o'rnatildi. Madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari doirasida sexlardan bir qator kasaba uyushmasi faollarini rag'batlantirildi.

Yosh kadrlarni qo'llab-quvvatlash, ularni mahoratini aniqlash olish hamda bu orqali ularni rag'batlantirish maqsadida "Eng faol yosh chilangar", "Eng faol yosh payvandchi", "Eng faol yosh elektromonter", "Eng faol yosh kimyoviy tahlil laboranti" yo'nalishlarida "Kasb mahorati-2024" ko'rik-tanlovlari tashkil etilib g'olib va sovrindorlar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Joriy yilning 4-noyabr kuni, Kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan yana bir katta tadbir - "Zakovat Quiz" intellektual o'yini o'tkazilib, unda korxonaning tarkibiy bo'linmalarida faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlaridan shakllangan 29 ta jamoalar ishtirok etishdi. O'yinda tashkiliy qo'mita tomonidan tayyorlangan savollar, biri-biridan qiziq va hayotni turli jabhalardan tarkib topgan, dunyoqarashni kengaytiradigan bo'lib, jamoalar o'z bilim va zukkoligini namoyish etishlari uchun yana bir imkon bo'ldi.

G'oliblik uchun jamoalar uzoq va murosasiz bellashdilar. O'yin natijalariga ko'ra eng yuqori ko'rsatkich bilan 1-o'rin "Mendeleyevchilar" jamoasiga (Ishlab chiqarish-texnika boshqarmasi), 2-o'rin "Fayz" jamoasiga (Elektr ta'minoti sexi), 3-o'rin "Markazlashtirilgan buxgalteriya" jamoasiga hamda 4-o'rin "Jihozlarni markazlashtirilgan ta'mirlash sexi" jamoasiga nasib etdi.

Shuningdek, kasaba uyushmasi faoliyatida uzoq yillar ishlagan faxriylar holidan xabar olindi, bayram bilan tabriklash ishlari amalga oshirildi.

Korxonada "Biz sog'lom yosh oilamiz" shiori ostida oilaviy sport musobaqasi tashkil etildi. Musobaqaning maqsadi, mehnat qilayotgan kasaba uyushmasi a'zolarini qo'llab-quvvatlash hamda yosh oilalar farovonligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, sportning ommaviylikni oshirishdan iboratdir.

Mazkur musobaqada, ishtirok etish istagini bildirgan 35 yoshgacha bo'lgan yosh oilalar hamda ularning 8-12 yoshgacha bo'lgan farzandlari qatnashdilar. Yugurish, akrobatika elementlari va to'pni nishonga otish, "Mohir hujumchi", "Qadimimizni rostlaymiz, sakrashni boplaymiz", "Tezlik estafetasi Epchilik estafetasi" shartlari bo'yicha bellashgan, ularni to'g'ri va tez bajargan oila g'olib deb topildi.

Qolaversa, sport tadbirlari doirasida Stol tennis hamda Volleybol bo'yicha ayollar hamda erkaklar o'rtasida musobaqalar tashkil etilib, g'oliblar munosib taqdirlandi.

Bayram munosabati bilan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kibersport turlarini yanada rivojlantirish va keng ommalashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan navbatdagi tadbirlardan biri korxonada xodimlari o'rtasida kibersport musobaqalari bo'lib o'tdi. Korxonaning sex va bo'limlaridan tashkil topgan 16 nafar jamoa ishtirok etgan qizg'in bahslar natijasiga ko'ra, kibersportning "Counter-Strike" turi bo'yicha musobaqa g'oliblari aniqlandi. Unga ko'ra, faxrli birinchi o'rinni korxonada Boshqarmasi



egalladi, ikkinchi o'rin Ammiak-3 sexiga nasib etdi va uchinchi o'rinni Mexanikaviy ta'mirlash sexi egalladi.

Kibersportning "FIFA" turi bo'yicha o'tkazilgan musobaqada, korxonaning sex va bo'limlarida faoliyat yuritayotgan 18 nafar xodimlar ishtirok etishdi. Qizg'in va murosasiz kechgan musobaqada g'oliblar aniqlandi. Natijalarga ko'ra, birinchi o'rinni Axborot kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi xodimi Hayotjon Bakirov, ikkinchi o'rinni Xaridlarni transformatsiya qilish bo'limi mutaxassisi Abrorbek Amirbekov, uchinchi o'rinni esa Ijtimoiy rivojlanish va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi mutaxassisi Nasibjon Umarov egalladi.

Barcha musobaqa va tadbirlar g'olib va sovrindorlari Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan qimmatbaho sovg'alar va diplomlar bilan taqdirlandilar. Zero, ishlab chiqarish korxonamizda xodimlarda o'z kasbidan tashqari sport turlariga qiziqish, uni mukammal egallash tahsinga loyiq.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Farg'ona viloyati kengashi tomonidan 11- noyabr O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni munosabati bilan "Eng yaxshi boshlang'ich kasaba uyushma tashkiloti" ko'rik-tanlovinin e'lon qilindi. Unda viloyatimizning barcha tashkilot va muassasalari kasaba uyushmalari ishtirok etdilar. Ushbu tanlovda "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyati kasaba uyushmasi qo'mitasi ham faol ishtirok etib, a'zolar soni 300 nafardan yuqori 3-toifa bo'yicha, faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Iltomjon ABDUVOHIDOV,
"Farg'onaazot" AJ
Kasaba uyushma qo'mitasi raisi.

Bilishingiz shart

MEHNAT SHARTNOMASI TARAFLARINING MODDIY JAVOBGARLIGI

Mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi mehnat shartnomasi tarafining boshqa tarafga yetkazilgan ziyonning o'rnini Mehnat Kodeksida va boshqa qonunlarda belgilangan tartibda qoplash majburiyatini ifodalaydigan yuridik javobgarlikdir.

Z arar yetkazilgandan keyin mehnat shartnomasining bekor qilinishi ushbu shartnoma taraflarini moddiy javobgarlikdan ozod etmaydi.

Mehnat shartnomasi tarafining moddiy javobgarligi, agar Mehnat Kodeksida yoki boshqa qonunlarda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, mehnat shartnomasi tarafining aybli g'ayriqonuniy qilmishi (harakati yoki harakatsizligi) natijasida ushbu shartnomaning boshqa tarafga yetkazilgan zarar uchun hamda aybli g'ayriqonuniy qilmish va yetkazilgan zarar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqasi mavjudligi uchun yuzaga keladi.

Mehnat shartnomasi taraflaridan har biri o'ziga yetkazilgan moddiy ziyonning miqdorini isbotlashi shart. Ish beruvchi xodim mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum qilinganda, xodimning hayoti yoki sog'lig'iga ziyon yetkazilganda, xodimga ish haqi to'lash va unga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlar kechiktirilganda, xodimning mol-mulkiga ziyon yetkazilganda xodimga yetkazilgan ziyonning o'rnini qoplashi shart.

Agar ish beruvchining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) bilan xodimga jismoniy yoki ma'naviy azob yetkazilgan bo'lsa, xodimga yetkazilgan ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishi lozim. Ish beruvchi xodimni mehnat qilish imkoniyatidan g'ayriqonuniy ravishda mahrum etishning barcha holatlarida u olmagun ish haqining o'rnini unga qoplashi shart.

Xodim ish beruvchiga to'g'ridan-to'g'ri yetkazilgan haqiqiy zararining o'rnini qoplashi shart. Olinmagan daromadlar (boy berilgan foyda) xodimdan undirilmaydi. To'g'ridan-to'g'ri yetkazilgan haqiqiy zarar deganda ish beruvchining mavjud mol-mulki (shu jumladan, uchinchi shaxslarning ish beruvchidagi mol-mulki, agar ish beruvchi mazkur mol-mulki but saqlanishi uchun javobgar bo'lsa) amalda kamayganligi yoki yomon holatga kelganligi, shuningdek ish beruvchi uchun mol-mulki sotib olish, tiklash yoxud xodim tomonidan uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun ortiqcha xarajatlar qilish va to'lovlarni amalga oshirish zarurati tushuniladi.

Xodim o'zining o'rtacha oylik ish haqi doirasida moddiy javobgar bo'ladi. Xodimning to'liq moddiy javobgarligi uning ish beruvchiga bevosita yetkazilgan haqiqiy zararining o'rnini to'liq miqdorda qoplash majburiyatidan iboratdir. Yetkazilgan zarar uchun to'liq miqdordagi moddiy javobgarlik Mehnat Kodeksida yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan hollardagina xodimning zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Yetkazilgan zarar uchun to'liq miqdordagi moddiy javobgarlik to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma asosida o'ziga ishonib topshirilgan qimmatliklarning kamomadida, xodim tomonidan bir martalik hujjat (tovar-moddiy qimmatliklarni olish ishonchnomasi, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hokazolar) bo'yicha olingan buyuklarning but saqlanishi ta'minlanmaganda, qasddan zarar yetkazilganda, alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar yetkazilganda, xodimning sud tomonidan aniqlangan jinoyi harakatlari natijasida zarar yetkazilganda, ma'muriy huquqbuzarlik natijasida zarar yetkazilganda, agar bu tegishli davlat organi yoki sud tomonidan aniqlangan bo'lsa, davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni (tijorat, xizmat sirni yoki boshqa sirlarni) tashkil etuvchi ma'lumotlar oshkor qilinganda, xodim mehnat majburiyatlarini bajarmagan taqdirda zarar yetkazilganda xodimning zimmasiga yuklatiladi.

To'liq moddiy javobgarlik ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunlarda nazarda tutilgan o'zga hollarda ham xodimning zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Pul yoki tovar qimmatliklari bilan bevosita muomala qilayotgan xodim to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma asosida o'ziga ishonib topshirilgan qimmatliklarning but saqlanishini ta'minlamaganlik uchun to'liq moddiy javobgar bo'ladi. Pul yoki tovar qimmatliklari bilan muomala qilish o'z xizmat vazifasiga kirmaydigan xodim bilan tuzilgan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Pul va tovar qimmatliklari bilan muomala qilishga oid xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishga qabul qilinaotgan yoki ishini bajarayotgan o'n sakkiz yoshga to'lgan shaxs ishga qabul qilinaotganda yoki keyinchalik mehnat shartnomasiga qo'shimcha tariqasida ushbu shaxs bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma tuzilishi mumkin.

Agar xodim talabgor bo'lgan ish (lavozim) to'liq moddiy javobgarlik to'g'ri-

sida shartnoma tuzishni talab qilsa, xodim esa bunday shartnomani tuzishga rozi bo'lmasa, ish beruvchi uni ishga qabul qilishni rad etishga haqli.

Pul yoki tovar qimmatliklari bilan bevosita muomala qilayotgan xodim bilan ish beruvchi yakka tartibdagi to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuzishga haqli, xodimlar o'ziga topshirilgan qimmatliklarni saqlash, ularga ishlov berish, ularni sotish (chiqarish), tashish, qo'llash yoki ularidan boshqacha tarzda foydalanish bilan bog'liq bo'lgan alohida ish turlarini birgalikda bajarayotgan, har bir xodimning zarar yetkazganlik uchun javobgarligini chegaralash va u bilan yakka tartibdagi to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida shartnoma tuzish imkoni bo'l-magan taqdirda esa ish beruvchi jamoaning (brigadaning) to'liq moddiy javobgarligi to'g'risida shartnoma tuzishga haqli.

Yakka tartibdagi to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomaga binoan qimmatliklar ularning but saqlanishini ta'minlash uchun shaxsan javobgar bo'ladigan aniq bir xodimga topshiriladi. O'zi bilan mazkur shartnoma tuzilgan xodim javobgarlikdan ozod bo'lish uchun o'zining aybi yo'qligini isbotlab berishi kerak.

Yakka tartibdagi to'liq moddiy javobgarlik yoki jamoaning (brigadaning) to'liq moddiy javobgarligi to'g'risidagi shartnoma mehnat shartnomasi taraflarining xodimga, jamoaga (brigadaga) ishonib topshirilgan qimmatliklarning but saqlanishini ta'minlashga doir vazifalarni aniqlashiriladi hamda ularning qo'shimcha huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi belgilab qo'yiladi.

To'liq moddiy javobgarlik to'g'risida o'zi bilan shartnoma tuziladigan xodimlarning toifalari ro'yxati jamoa shartnomasida belgilanadi.

Xodim bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida yozma shartnoma tuzilmagan, shuningdek bunday shartnoma pul yoki tovar qimmatliklari bilan muomala qilish o'z funksional majburiyatlariga kirmaydigan xodim, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs bilan yoxud xodimlar toifasi ro'yxatiga kirmaydigan shaxs bilan tuzilgan hollarda ish beruvchiga yetkazilgan zarar uchun xodimning zimmasiga cheklangan moddiy javobgarlik yuklatilishi mumkin. Bunday hollarda to'liq moddiy javobgarlik xodimning zimmasiga faqat qonunda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan hollardagina yuklatilishi mumkin.

Huayyan xodimlar tomonidan yetkazilgan zararining o'rnini qoplash to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin ish beruvchi yetkazilgan zararining miqdorini va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun Mehnat Kodeksning 302 — 311-moddalarida nazarda tutilgan tartibda xizmat tekshiruv o'tkazishi shart.

Zararning kelib chiqish sabablarini aniqlash uchun xodimdan yozma tushuntirish talab qilish majburiydir. Xodimning tushuntirish berishdan bosh tortishi uning ish beruvchiga zarar yetkazganlik uchun moddiy javobgarlikka tortilishiga monelik qilmaydi va hozir bo'lgan guvohlar ko'rsatilgan holda dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Ish beruvchiga yetkazilgan zarar miqdori buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosidagi haqiqiy yo'qotishlar bo'yicha belgilanadi.

Ish beruvchining asosiy fondlarga (vositalarga) taalluqli bo'lgan mol-mulkiga yetkazilgan zarar miqdori belgilangan normalarga ko'ra eskirish chegirib tashlangan, moddiy qimmatliklarning balans qiymatidan (tannaxridan) kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Ish beruvchining asosiy fondlarga (vositalarga) taalluqli mol-mulki o'g'irlangan, kamomad bo'lgan, qasddan yo'q qilingan yoki qasddan buzilgan taqdirda zararining miqdori zarar aniqlangan kunda ushbu hududda amalda bo'lgan bozor narxlar bo'yicha hisoblab chiqariladi. Boshqa hollarda zararining miqdori u yetkazilgan kuni mazkur hududda amalda bo'lgan bozor narxlar bo'yicha hisoblab chiqariladi.

Qonunchilikda ish beruvchiga o'g'riqlik, mol-mulkning ayrim turlari va boshqa moddiy qimmatliklar kamomadi yoki yo'qotilganligi tufayli yetkazilgan zarar miqdorini aniqlashning alohida tartibi, shu jumladan ish beruvchiga yetkazilgan zararining haqiqiy miqdori uning nominal miqdoridan ko'p bo'lgan hollarda zarar bir necha karra baravar hisoblab chiqarishning alohida tartibi belgilanishi mumkin.

Ish beruvchiga zarar yetkazganlikda aybdor bo'lgan xodim zararining o'rnini ixtiyoriy ravishda to'liq yoki qisman qoplashga haqli.

Zararning o'rnini ixtiyoriy ravishda qoplash Mehnat Kodeksida nazarda tutilgan doirada amalga oshiriladi.

Xodimning ish beruvchining kelishu-

viga binoan zararining o'rnini bo'lib-bo'lib to'lash asosida qoplashga yo'l qo'yiladi. Bunday holda xodim ish beruvchiga zararining o'rnini qoplash to'g'risidagi yozma majburiyatni to'lovlarining aniq muddatlarini ko'rsatgan holda taqdim etadi. Agar zararining o'rnini ixtiyoriy ravishda qoplash to'g'risida notarial tasdiqlangan majburiyatni bergan xodim mehnat munosabatlarini tugatgan bo'lsa va zararining o'rnini qoplashdan bosh tortsa, qoplanmagan qarar notariusning ijro xatlariga asosan undiriladi.

Xodim yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun ish beruvchiga uning roziligi bilan bahosi teng bo'lgan mol-mulk berishi yoki shikastlangan mol-mulki tuzatib berishi mumkin.

Ish beruvchiga o'rtacha oylik ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda yetkazilgan zarar summasini aybdor xodimdan undirish ish beruvchining zarar aniqlangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirilmay qabul qilingan buyrug'iga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar yetkazilgan zararining xodimdan undirilishi lozim bo'lgan summasi uning o'rtacha oylik ish haqidan oshib ketsa yoki zarar aniqlangan kundan e'tiboran bir oylik muddat o'tgan bo'lsa, undirish sud tartibida amalga oshiriladi.

Xodim mehnat shartnomasini shartnomada yoki ish beruvchining hisobidan o'qitish to'g'risidagi kelishuvda shartlashilgan muddatdan oldin uzrli sabablarisiz bekor qilingan taqdirda, xodim ish beruvchi uni o'qitish uchun qilgan, o'qish vaqti tugaganidan keyin haqiqatda ishlab bermagan vaqtiga mutanosib tarzda hisoblab chiqarilgan xarajatlarning o'rnini, agar mehnat shartnomasida yoki o'qitish to'g'risidagi kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qoplashi shart.

Tashkilotga uning mehnat shartnomasi bo'yicha ishlaydigan rahbari tomonidan yetkazilgan zararining o'rnini Mehnat Kodeksida belgilangan qoidalariga rioya etilgan holda tashkilot mulkdorining yoki vakolat bergan organing qarori asosida qoplanadi.

Rahbar zararining o'rnini ixtiyoriy tartibda qoplashni rad etgan taqdirda, yetkazilgan zarar sud tartibida undiriladi.

Sud aybning darajasi va shaklini, aniq holatlarni va xodimning moddiy ahvolini hisobga olib, undiriladigan zarar miqdorini kamaytirishi mumkin. Sud xodimdan undiriladigan zarar miqdorini kamaytirish to'g'risidagi kelishuv bitimini tasdiqlashga haqli.

Agar zarar g'arazli maqsad bilan sodir etilgan jinoyat sababli yetkazilgan bo'lsa, xodimdan undiriladigan zararining miqdorini kamaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Zarar uni bartaraf etib bo'lmaydigan kuchi, oqlangan xo'jalik tavakkalchiligi, oxirgi zarurat yoki zaruriy mudofaa yoxud ish beruvchining xodimga ishonib topshirilgan mol-mulki saqlash uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash bo'yicha majburiyatini bajarmaganligi oqibatida yuzaga kelgan hollarda xodimning moddiy javobgarligi istisno etiladi.

Oqlangan xo'jalik tavakkalchiligi deganda qo'yilgan maqsadga boshqacha tarzda erishish mumkin bo'lmaganda, xodimning o'z zimmasiga yuklatilgan lavozim majburiyatlarini lozim darajada bajaragan, muayyan darajada g'amxo'rlik ko'rsatgan va ehtiyotkorlik qilgan, zararni bartaraf etish choralarini ko'rgan holda hamda xo'jalik tavakkalchiligining obyektidamlarning hayoti va sog'lig'idan emas, balki moddiy buyuklardan iborat bo'lgan hollarda zamonaviy bilim va tajribaga muvofiq qilgan harakatlari tushuniladi.

Ish beruvchi moddiy zarar yetkazilgan ish sharoitlarini hisobga olgan holda zararni aybdor xodimdan to'liq yoki qisman undirishdan voz kechish huquqiga ega. Tashkilot mulkdori ish beruvchining mazkur huquqini qonunchilikda, shuningdek tashkilotning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda cheklashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 61-moddasida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonaga, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish uchun javobgarlik belgilangan.

Talon-toroj qilingan mulk qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravaridan oshmasa oz miqdorda talon-toroj deb topiladi.

Ustav fondida davlat ulushi bulmagan korxonalar xodimlari tomonidan shuningdek, harakatlar sodir etilishi tashkilot rahbari, mulkdori yoki vakolatlar shaxsning arizasiga asosan javobgarlikka sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.10.2024-yildagi "Huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha

qo'shimcha chora-tadbirlar qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi Qonuniga asosan oz miqdorda talon-toroj qilgan shaxs agar u o'z aybiga iqror bo'lsa, jabrlanuvchi bilan yarasha va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, ma'muriy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

Shuni qayd etish lozimki, Farg'onazot AJning "Ichki Mehnat tartibi qoidalariga ko'ra korxonaga mol-mulki o'g'irlash, Mehnat majburiyatlarini bir marta qo'pol ravishda buzish" deb topiladi va Mehnat shartnomasini bekor qilishga sabab bo'ladi.

Jinoyat Kodeksining 167-moddasida Aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj jinoyati uchun javobgarlik belgilangan.

O'zlashtirish yoki rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilishda o'g'riilanadigan mulk aybdorning o'z huquqiy qaramog'ida yoki tasarrufida bo'ladi, u mazkur huquqdan foydalanib mol-mulki o'ziniqilib oladi yoki uni boshqalar foydasiga o'tkazadi. Bu mulk ishonib topshirilgan mulk hisoblanadi. Bunday egalik qilish aybdorning mazkur mulkni xizmat majburiyati, shartnoma yoki mazkur topshiriqqa ko'ra boshqarish, tasarruf etishi yoki saqlab turishga oid vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lishi lozim. Mulka egalik vakolati maxsus huquqiy hujjat bilan rasmiylashtiriladi.

O'zlashtirish aybdor o'ziga ishonib topshirilgan mulkni qonunga xilof ravishda saqlab qolib, mulkni o'ziniqilib foydalanadi. Saqlab qolish aybdorga ishonib topshirilgan mulkni qaytarmaslik yoki shartnomada belgilangan muhlatta qaytarmaslikdan iborat.

Rastrata aybdorga ishonib topshirilgan mol-mulki g'arazli maqsadlarda qonunga xilof ravishda sarf-xarajat qilishda, uning o'zi yoki bevestia ishtirokida o'rnini qoplamasdan iste'mol qilinishini taqazo etadi. Talon-torojning bu turiga shuningdek, aybdor tomonidan mol-mulki sotish, sovg'a qilish yoki aldov yo'li bilan boshqalar hisobiga o'tkazib yuborish kiradi.

Mansabdor shaxslarning o'z xizmat vakolatlarini suiste'mol qilishning bir necha turlari mavjud:

1. Mansabdor shaxsiga ishonib topshirilgan mulkni o'zlashtirish yoki rastrata qilish.

2. Mansabdor shaxs qo'l ostidagilarg ishonib topshirilgan yoki ularning tasarrufida bo'lgan mulkni egallab olishi yoki uning uchinchi shaxslarga berib yuborishi.

3. Mansabdor shaxsiga ishonib topshirilgan va uning tasarrufida bo'lmagan mol-mulki egallab olishi kabilar.

O'zgalar mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlarga aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan mulkni zarar yetkazish, jinoyi yo'li bilan topilgan mulkni olish yoki o'tkazish, mulkni qo'riqlashga vijdotsiz munosabatda bo'lish, mulkni qasddan nobud qilish yoki unga zarar yetkazish, hokimiyat yoki mansab vakolatini suiste'mol qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish, mansabga sovuqonlik bilan qarash, hokimiyat harakatsizligi, mansab soxtakorligi kabi jinoyatlar tashkil qiladi.

Shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rish harakatlari ni jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish qumkilinigi anglagan holda to'xtatsa, shuningdek, jinoyi oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi.

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish javobgarlikni istisno qiladi. Jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytgan shaxs, agar amalda sodir etgan qilmishida boshqa jinoyat tarkibining barcha alomatlari bo'lsa, ushbu Kodeks bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Oxirgi zarurat holatida, ya'ni shaxsning yoki boshqa fuqarolarning shaxsiga yoxud huquqlariga, jamiyat yoki davlat manfaatlariga tahdid soluvchi xavfni qaytarishi uchun qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlariga zarar yetkazgan holda sodir etilgan qilmish, basharti, shu xavfni o'sha holatda boshqa choralar bilan qaytarishning iloji bo'lmasa hamda keltirilgan zarar oldi olingan zararga qaraganda kamroq bo'lsa, jinoyat deb topilmaydi.

Shaxsning oxirgi zarurat holatida sodir etgan qilmishi, basharti, oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqilmagan bo'lsa, qonuniy deb topiladi.

Agar boshqa vositalar orqali xavfning oldini olish mumkin bo'lsa yoki keltirilgan zarar oldi olingan zarardan oshib ketsa, qonun bilan qo'riqlanadigan huquq va manfaatlariga bunday zarar yetkazish oxirgi zarurat chegarasidan chetga chiqish deb topiladi.

Mahmud QAYUMOV, Yuridik bo'limi boshliq o'rinbosari.



"FARG'ONAAZOT" ISTE'DODLAR O'CHOG'I

Oddiy xodim, bosh muhandis yoki rahbar bo'lishidan qat'iy nazar insonni o'z qiziqishi, xobbisi bo'ladi. Ana shu qiziqishni mukammal egallab, qalbi bilan his etib, ro'yoga chiqarish esa iste'dodni yaratadi. Biz korxonamizda shunday iste'dodlar bilan yonma-yon ishlayotganimizni esa ko'pincha payqamay qolamiz.

Baxromjon Masharipov 1975-yil 6-dekabrda Qo'shshetpa tumani Dehqonobod qishlog'ida tug'ilgan. 1992-yilda maktabni tamomlaganidan so'ng Yozyovon tumanidagi xususiy korxonada ishlab, keyinroq 2000-yilda "Farg'onazot" AJning Oqava suvlarni kimyoviy tozalash sexiga ishga kirgan. 2004-yilda esa o'z faoliyatini Bug-qozon sexida davom ettirgan va hozirda shu yerda navbatchi sozlovchi chilarang sifatida mehnat qiladi. Bugungi maqolamiz qahramoni Bahrom akani biz mehnat faoliyatiga emas, balkim, ijodiga nazar tashlaymiz.

Baxrom aka yoshligidan atrof-muhitni, odamlar va voqealarni kuzatishni yaxshi ko'radi. Bu kuzatishlari uni she'r yozishga, hayotiy tuyg'ularni qog'ozga tushirishga undaydi. Uning aksari she'rlari qalbidagi tug'ilgan hayotiy tuyg'ularini ifoda qiladi va o'quvchi yuragini rom qiladi. Shoir o'zi

yonmasa, boshqalarni yondirolmaydi, qalb hislarida otash bo'lmasa, boshqa qalblarga harorat berolmaydi. Bu sehri otashsiz har qanday she'riy jimjimalardan, badiiy vositalardan, mahoratdan naf yo'q deb hisoblaydi yozuvchi.

Baxromjon ishdan bo'sh vaqtlarida ko'p kitob o'qiydi, ilhom kelganida esa qo'lga qalamni olib, sher yozishga kirishadi. Shuning uchun ham u doimo daftar va qalamni o'zi bilan olib yuradi. U kamtar inson, faqat yuqinlari va do'stlari uni qalb tebratishini bilishadi. U ichidan kelgan his-tuyg'ularni ifoda etish uchun she'r yozadi, garchi uning sherlariga qo'shiqlar bastalanib, ommalashganiga qaramasdan shon-shuhratga intilmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, Baxromjon Masharipov – o'z ishini sevuvchi, o'z his-tuyg'ularini samimiy tarzda ifoda etuvchi va qalbidagi ibratli hikoyalar saqlagan havaskor shoirdir.

Baxromjon MASHARIPOV ijodidan

E'TIBORSIZLIK

Bahor havosi. Tanga sokinlik beruvchi mayin shabboda. Davron darazadan tashqari boqganicha ochik oynadan kirib kelayotgan gullar iforiga mast, tabiat manzarasiga lol qolganicha turib qoldi. Tabiat go'zal o'zgaruvchan bahor havosi. Bolalikdagi do'stlari bilan tongga dam olgani borib jalada qolib ketgan damlarni eslab yuziga tabassum yugurdi. Qani endi o'sha davr beg'ubor bolalik yuz etib o'tdi- yu ketdi.

Jiringlagan terafoq qo'ng'iroq'i hayollarini buzdi.

- Dadasi bugun erlaring kelarsiz? Qizimiz Komilani tug'ilgan kuniga ayam bilan dadamlar ham kelishmoqchi.

- Ha yaxshi, harakat qilaman. Uyda ro'z'oringizda kamchilik yo'qmi. Biror narsa kam bo'lsa yo'l- yo'lakay ovoldir.

- Hamma narsa bor. Faqat tezroq kelsangiz bo'ldi.

- Xo'p mayli.

Telefonni qo'yib, Davron yana o'z ishlari bilan shug'ullana boshladi...

Ish vaqti tugadi. Davron mashinasida uyi tomon yeldek uchib borardi. Qizalog'i Komila juddayam sho'x, shiringina qiz bo'lganda o'ziyam. Yo'lida magazinga kirib qizi uchun o'yinchoq sotib oldi.

- Kattaroq paketingiz bo'lsa, shuni solib bering - deb kattagina salafan paketga yumshoq o'yinchoqni soldirib oldi. Komila shunaqangi yumshoq o'yinchoqlarni yaxshi ko'radi. Aiyi. Quyun. O'lmaxon.

Davron uyiga kelganda uy mehmonlar bilan to'lgan edi. Komilani quvonchi cheksiz, chunki hammadan sovg'alari olar, shirin ezgu tilaklar, tabriklar quvonchiga quvonch ko'shardi. Tug'ilgan kun judayam yaxshi, chiroyli o'tdi. Kelgan mehmonlar uy ulariga ketishdi. Komila bilan oyisi ularni yig'ishtirishdi.

Tong otgach, yengil nonushta qilib chiqib ketayotgan Davronni qo'lga ayoli kattagina salafan paket uzatdi. Bu o'sha kechagi qizi uchun sotib olgan sovg'asi solingan paket edi. Davron hayron bo'lib:

- Bu nimaga? - dedi.

Ayoli:

- Ha axlat. Paketga solganimni boisi, yo'lida biror joyga tashlab ketarsiz. Ko'p qavatli uyda shuncha axlatni qo'yish uchun joy yo'k. Na iloj, Davron paketni oldida xayrlashib ishonasi tomon yo'l oldi. Ketib borarkan shahardan chiqishda shundoqqina yo'l bo'yida to'xtab paketdagi axlatni mashina oynasidan uloqtirdi va yo'lida davom etdi. Ishxonasiga yetib kelgan Davronni boshliq xonasiga chaqirtirdi. Kechagi hisobotida anchayin tushunmovchiliklar borligi va shu hisobotni qayta ko'rib chiqib, topshirib ketishini tayinladi.

